

ARISTOTEL KAUZAL TAHLILINING FOMA AKVINSKIY TEOLOGIK FALSAFASIGA TRANSFORMATSIYASI

Zokirjon Ne'matov

O'zbekiston Milliy universiteti talabasi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Aristotel kauzal tahlilining Foma Akvinskiy teologik falsafasiga transformatsiyasi masalasi ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: xristianlik, Aristotel, Foma Akvinskiy, teologiya, falsafa, din.

TRANSFORMATION OF ARISTOTEL'S CAUSAL ANALYSIS TO THE THOMA AQUINIC THEOLOGICAL PHILOSOPHY

Zokirjon Nematov

Student of the National University of Uzbekistan

ABSTRACT

This article discusses the transformation of Aristotle's causal analysis into the theological philosophy of Thomas Aquinas.

Keywords: Christianity, Aristotle, Thomas Aquinas, theology, philosophy, religion.

KIRISH

Xristian dini vujudga kelganidan so'ng uni turli radikal qarashlardan himoya qilish maqsadida Xristian ilohiyotchilik konsepsiyasini ishlab chiqish zarurati tug'ildi. Bunda Xristian ilohiyotchilari antik davr faylasuflari fikrlaridan o'z maqsadlari yo'lida foydalandilar, ulardan o'zlariga „xizmat qilishi" mumkin bo'lganlarini saqlab qoldilar, xristianlik diniga qarshilarini esa shakkoklikda ayblab inkor etdilar. Bu ma'suliyatli vazifani Apologetlar va Sxolastlar o'z zimmalariga oladilar. Xususan, ulardan eng mashhurlari Xristian olamida „avliyo"darajasiga ko'tarilgan apologet Avliyo Avgustin bo'lsa, yana biri O'rta asrlar mashhur sxolasti Foma Akvinskiy bo'ldi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Avgustin o'zining ilohiyotchilik konsepsiyasini ishlab chiqishda Neoplatonizm qarashlaridan faol foydalangan bo'lsa, Foma uchun kimning qarashlari tayanch asos

bo'lganligi masalasi Falsafa va dinshunoslik uchun dolzarb masala hisoblanadi. Foma Akvinskiy masalasi dolzarbliigi sababi uning falsafasi Rim - katolik cherkovining rasmiy falsafasi deb e'lon qilinganidir.

O'rta asr xristian aristotelizmining eng mashhur namoyandasi, shubhasiz, «Doctor angelicus», („Farishta doktor") nomini olgan Foma Akvinskiydir. Sababi o'sha davrgacha xristian dini suyanib kelgan Avliyo Avgustinning ilohiyot konsepsiyasi radikal qarashlarga yetarlicha javob bera olmay qolgan edi. Aynan Foma yashagan davrda qayta kashf qilingan , (Bunda sharq peripatetiklarining o'rni beqiyos bo'ldi) Aristotelning qarashlarini esa yoki xristianlik falsafasi bilan sintezlash yoki butunlay inkor etish kerak edi. Bu jarayonda Foma o'z ustozini Buyuk Albert izidan borib Aristotelni „ xristianlashtirish" ya'ni Aristotel qarashlari va xristianlikni teologik sintezlashga katta hissa qo'shdi. Bu sintez asosini Foma Akvinskiyning „Xudo mavjudligining 5 isboti" tashkil qilib bu orqali u Xudoning mavjudligini ratsional tarzda isbotlab beradi.

Bunda spikulyativ falsafiy fanlarning yuqori qismi „tabiiy ilohiyot"ni namoyon qiladi. Foma fikriga ko'ra, narsalar haqidagi ochiq va aqldan yuqori bilimlar tabiiy bilimlar bilan qarama-qarshi emas, chunki ularning har ikkisi ham haqiqatdir. Ilohiyot fanlarining maqsadi va vazifasi ilohiy kitoblardagi haqiqatni barchaga tushunarli, ayon, ishonarli bo'lishi uchun batafsil talqin hamda tizimli bayon qilib berishdan iborat.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Fomaning ta'kidlashicha, ilohiyot falsafaning xizmatidan foydalanishi mumkin. Xristian dinining asosiy maqsadi insonni xalos etish ekan, bu nuqtai nazardan, „falsafa ilohiyotning cho'risi bo'lmog'i kerak"¹ Xudoning mavjudligini, intellektidagi mutlaq mavjudlik tushunchasiga asoslangan tahlilga tayanib, to'g'ridan-to'g'ri isbotlash imkonsizdir. Biroq bunda xudoning mavjudligini yaratilgan mavjudotlarga qarab qisman isbotlash mumkin. Foma Akvinskiy beshta shunday dalil keltiradi (lot. *quinque viae*, ya'ni „beshta yo'l" yoki „beshta dalil" degan ma'noni anglatadi) : 1) *ex motu* - „harakat-sabab" 2) *ex ratione efficientis* - „keltirib chiqaruvchi sabab"; 3) *ex contingente et necessario* – „zaruriy sabab"; 4) *ex gradibus perfectionis* – „mukammalik darajasiga ko'ra sabab"; 5) *ex gubernatione rerum* – „ilohiylikning narsalar ustidan hukmronlik sababi" . Bu dalillarning tushunarli tarifi quyidagicha:

1- isbot ;Kosmologik dalil ²

Bu dalilning asosi quyidagicha : Tabiatda barcha narsalar o'zgarishda bo'ladilar, harakat qiladilar. Ularning o'zgarish jarayoni bu o'zgarishdan tashqari

nimagadir ishora qiladi. Ya'ni harakat sodir bo'lishi uchun boshqa hodisa zarur. Harakat o'z-o'zidan sodir bo'lmaydi. Oddiy qilib misol bilan tushuntirsak : Dominoning ma'lum bir bo'lakchasi yiqilishi uchun avvalgi bo'lakdan turtki oladi , o'z navbatida avvalgi bo'lak ham o'zidan oldingi bo'lakdan turtki olgan. Lekin bu orqaga regresning heksizligini tasavvur qilib bo'lmaydi. Demak domino bo'lakchalariga dastlabki turtkini boshlab bergan sabab borki bu Xudodir.

2- isbot; Kazual dalil ;

Bu dalil Kosmologik dalilning mohiyati sifatida ham ko'riladi. Shuningdek bu dalil sabab- oqibat aloqalariga asoslanadi. Barcha hodisalar oqibat sifatida o'z sodir bo'lish sababiga ega bo'ladi. O'z navbatida bu sabab ham boshqa bir sababning oqibati hisoblanadi. Olamdagi xar bir hodisa sabab-oqibat aloqalariga asoslanadi. Oddiy qilib aytganda Masalan: Ustoz meni darsga kirgizmaganining sababi , dars boshlanish vaqtidan kech qoldim , kech qolganimning sababi men chiqqan aftobus yo'lda buzilib qoldi, aftobus buzilishi sababi esa , aytaylik, dvigateldagi nosozlik edi. Shu jarayonda biz oqibatdan sabab tomon qaytishni ko'rdik. Bu oqibat- sabab regresi jarayonini orqaga yo'nalishini ham abadiy tasavvur qilib bo'lmaydi. Demak dastlabki sabab mavjudki u Xudodir.

3 -isbot; Zaruriyatga asoslangan dalil

Yerdagi har qanday narsa prinsipial jihatdan tasodifiy hisoblanadi, ya'ni mavjudligi zarur emas.

Boshqacha aytganda Dunyoda hayot davom etishi uchun siz yoki mening mavjudligimiz zarur emas. Yoki Amerika qit'asi Kolumb tomonidan kashf qilinguncha ham boshqa materikdagi insonlar yashab kelishgan. Ular uchun Amerika qit'asi borligi zarur emas edi. Shunday qilib olamdagi istalgan bir hodisa, narsaga nisbatan tasodif deb qarashimiz mumkin, lekin hamma narsaning mavjudligi birdaniga tasodif bo'lishini aqlga sig'dirish mumkin emas . Zaruriy bo'lgan nimadir mavjud bo'lishi kerakki Fomaga ko'ra biz uni Xudo deb ataymiz.

4-isbot ;Mukammallik va borliq darajalariga asoslangan dalil.

Bizni o'rab turgan olamdagi hamma narsa Ierarxik tartibda tuzilgan bo'lib , biz bu narsalarda mukammallik unsurlarini darajama- daraja uchratishimiz mumkin. Masalan harakatsiz toshdan doimiy o'zarishda bo'luvchi o'simlik, o'simlikdan ko'ra o'zi mustaqil harakat qila oluvchi, sezish xususiyatlariga ega bo'lgan hayvonlar, hayvonlardan ko'ra aqliy va yana bir necha xususiyatlariga ko'ra insonlar mukammallikka yaqindir. Bu qarashning yana bir jihati shundaki, biz o'simlikliklar orasidan mayda hashorotlarni ovlab ular bilan oziqlanuvchi ayrim o'simlik turlari , „ovchi gullar"ni ajratib ko'rsatamiz. Yoki hayvonlar orasida mayda

hisoblarni amalga oshiruvchi shimpanze va delfinlarni insonning aqliy xususiyatiga yaqin bo'lgani uchun ajratib olib boshqa hayvonlardan ustunroq ko'rishimiz mumkin. Bu jihatdan ular o'zlaridan bir pog'ona yuqori bo'lgan mavjudotlar hususiyatlariga qarab mo'ljallanmoqdalar. Shunga o'xshab inson ham har tomonlama mukammallikka intilar ekan o'zidan yuqori darajali nimanidir o'ziga maqsad qilib olgan bo'ladi. Fomaga ko'ra bu maqsad mukammallik chegarasi bo'lgan, eng oliy darajadagi mukammallikka qaratilganki, bu Xudodir

5 - isbot ; Teleologik isbot. Maqsadga yo'nalganlik

Biz tabiatda tartibni kuzatamiz va natijada hamma narsada „thelos”- maqsadni ko'ramiz. Dunyodagi tartib va uning ko'pgina sirli aloqalari uning puxta o'ylangan rejasidan dalolat beradi. Bu ham ushbu rejani yaratgan va uni butun olamda aktuallashtirgan ratsional Ruhga ishora qiladi. Bu Ruhni biz Xudo deb ataymiz.

Foma Akvinskiyning „Xudo mavjudligining 5 isboti" mazmuni qisqacha shulardan iborat. Akvinskiy bu isbotlarni ishlab chiqishda Aristotel qarashlaridan andoza sifatida faol ravishda foydalandi.

Jumladan Aristotelning „To'rt sabab" , „Potensiallik va Aktuallik" , „Dunyoning Ierarxik tuzulishi " g'oyalari 5 isbotning mohiyatida yotadi.

Asosan olganda Aristotelning „Hodisalarning to'rt sababi " haqidagi ta'limoti Foma uchun asosiy tayanch g'oya bo'ldi. Sababini aniqlashdan oldin „To'rt sabab"ni ko'rib chiqsak :

Har bir alohida narsa shakl va materiyadan tashkil topadi. Masalan yumaloq loy o'z xolicha shakl-yumaloqlik va materiya-loyga ega. Kulol esa bu yumaloq loydan ,aytaylik, piyola yasashi mumkin. Endi loy nisbatan nozik shaklga ega yangi narsaga aylandi. Endi bu holatda shakl - piyola materiya - loy. Shakl bizga mohiyatni anglashga yordam beradi. Shu o'rinda bu piyola o'zini o'zi yasamadi. Uni kulol yasadi. Kulol uni yasashga kirishganida qandaydir ko'rinishdagi piyola yasashni maqsad qildi.

Mana shu piyola yasash jarayonida „To'rt sabab" ko'rib chiqildi. Endi uni Fomaga sintezli holatda ko'rib chiqaylik. Dastlab Aristotel sabablari:

1) Tugallangan piyola haqidagi g'oyaga Kulol ish boshlanishidan oldin ham ega edi va maqsadli ish bajardi. Piyola yasashidan maqsad suv iste'mol qilish uchun vosita o'rni to'ldirish bo'lishi mumkin. Bu maqsad Aristotelning yakuniy sabab „causa finalis" hisoblanib Fomaga u Teleogik dalil ko'rinishida ko'chgan. Ya'ni Xudo ham barcha narsa borki maqsadli yaratgan aks holda olam bunchalik puxta, hikmatli har narsa kerakli bo'lmas edi.

2) Kulolning xom materialdan ishlashi jarayoni harakatga keltiruvchi kuch yoki jarayon manbai hisoblanadi. Bu harakatlantiruvchi sabab -, „causa efficens“ deb ataladi.

Bu sabab Foma Akvinskiyning birinchi isboti uchun asos bo‘lib xizmat qildi. Faqat bunda kulol o‘rmini Xudo , piyola o‘rmini olam egallaydi. Olam ham piyoladek o‘z yaratuvchisiga ega. U o‘zini o‘zi yasamagan.

3) Aristotelning harakatlantiruvchi sababini yana Fomaning sabab-oqibat prinsipiga asoslangan dalilga ham qiyoslasa bo‘ladi. Ya’ni jarayonga tashqi kuch ta’sir qilishi sababli oqibatda piyolaga ega bo‘lamiz. Bu prinsipning Fomadagi variantida tashqi kuch sababi Xudo hisoblanadi.

Foma Akvinskiy Aristotelning „4 sabab“ idan o‘zining Xudo mavjudligining Teleologik, Kosmologik va Kazual dalillari asosini ishlab chiqishda foydalandi.

Fomaning „Mukammal darajalari va komillikka intilish“ isboti ham Aristotelning „Aktuallik va Potensiallik“ , „Dunyoning ierarxik tuzilishi“ haqidagi qarashlarining „xristianlashgan“ variantidir. Masalan Aristotel barcha narsalar o‘zida mavjud potensial-imkoniyatni aktuallashtirishga ya’ni voqealikka aylantirishga intiladi deb aytib o‘tadi. Buni quyidagicha izohlash mumkin:

Urug‘ yerga tushgach o‘zidagi daraxtga aylanish imkoniyatini amalga oshirishga harakat qiladi. Bu urug‘ daraxt bo‘lib unib chiqsa uning potensiali aktuallashtirishga hisoblanadi.

Aristotelning dunyo ierarxiyasi haqidagi qarashi esa bunday:

Dunyo - pastdan tepaga ierarxik tuzilgan bo‘lib, u quyidagicha darajalangan

Sof aktuallik

Insonlar

Hayvonot olami

O‘simliklar

Noorganik dunyo: tosh , tuproq

Sof potensiallik

Eng quyida hech qaysi imkoniyati voqealanmagan substansiya, undan yuqori tosh , tuproq, undan yuqori o‘simliklar dunyosi, undan yuqori hayvonot olami, undan yuqori insoniyat va eng yuqori bosqichda barcha potensial imkoniyatlari aktuallashtirishga shu sababli hech narsaga muhtoj bo‘lmagan mavjudot turadi.

Aristotel Ierarxik dunyosida har bir narsa o‘ziga xos imkoniyatlarini amalga oshirishga intiladi. Har bir narsa maqsadi shundan iborat.

Bu Ierarxik darajalanish Fomaga bir ikki o‘zgarishlar bilan ko‘chirildi.

Xudo

Samoviy sohalar ierarxiyasi

Insonlar

Hayvonot olami.O'simliklar

Noorganik dunyo :Tosh,tuproq

Farqi Fomaga ko'ra eng yuqori bosqichdagi Sof Aktuallik o'rnini Xudo egallaydi va inson va Xudo darajalari orasida Farishtalar ham borligi edi. Aristotelda mavjudotlar o'zida mavjud potensialni aktuallashtirishga harakat qiladilar.

Fomaga ko'ra bu holat bunday tushuntiriladi: inson o'zida mavjud fazilatlarni barcha, barcha imkoniyatlardan foydalanib mutloq mukammallikka bo'lmasa ham nisbatan mukammal holatga kelishi va oqilga aylanishi ,o'zini nuqsonlardan ,gunoh ishlardan, nopoklikdan holi bo'lishi uni o'zidan yuqori Xudoga komillik jihatidan yaqinlashtiradi deb tushuntiradi. Bundan „Xudo mavjudligi 5 isboti"dagi „Mukammallik darajalari va komillikka intilish" isbotining asosini ko'ra olishimiz mumkin.

XULOSA

Shunday qilib Foma Akvinskiy Aristotelning qarashlaridan o'zining 4ta isbotini asoslashda qolip sifatida foydalangan deyish mumkin. Lekin uning Zaruriyatga asoslangan dalil g'oyasini aynan o'zini Aristotelda uchratmaymiz, bu isbotni Foma o'zi ishlab chiqqan bo'lishi mumkin.

Shu o'rinda Foma Akvinskiyning bu isbotlarini asl mohiyatini tushunib olish darkor. Bu isbotlar biror fan sohasidagi isbot-dalil ma'nosida tushunilmaydi.Bizning hissiy idrokimiz uning tashqarisida turgan nimagadir ishora qiladi va bu ishorada biz Xudoni ko'rishimiz mumkin.

Yana bir narsani eslatish kerakki Fomaning „5 isboti" Xudo mohiyatini bilishga qaratilmagan. Bu mohiyatni faqat aql-idrokka tayanib anglab olishning iloji yo'q. „Xudo mavjudligining 5 isboti" e'tiqodlilar uchun ishlab chiqilmagan. E'tiqodlilar Xudo mavjudligiga, butun borliqni u yaratganligiga , bu isbotlardan bexabar xolatda ham ishonishlari mumkin. Butun borliqni Xudo yaratganligi va uning hamma narsaga qodirligiga ishongan e'tiqod qilgan inson , tabiatdagi mo'jizaviy holatni ko'rib ajablanmasligi kerak . E'tiqodlilar uchun hech qanday aqlning o'zigagina tayanuvchi isbot bo'lishi shart emas .

Bu isbotlarning vazifasi esa E'tiqodsiz mushriklar yoki shubxa qiluvchilarga qarshi ularning o'z qurollari ya'ni insoniy mantiq kuchi yordamida javob qaytarish edi.

Shunday qilib Foma xristianlik falsafa bilan kelisha olishini , bu kelishuvni xristianlik foydasiga burishning iloji borligini isbotladi.Uning qarashlariga Aristotelning ta'sir

ko'rsatganligi aniq faktdir. Bu ta'sir natijasida esa Tomizm qarashlari ishlab chiqildi. Bu ta'limot keyinchalik 1879 yilda Xristian katolik dini rasmiy falsafasi deb e'lon qilindi.

REFERENCES

1. FALSAFA TARIXI: O'RTA ASR G'ARB FALSAFASI ;Raxmat Karimov , Xurshid Toshev ;O'quv qo'llanma; Toshkent ; 2015 ; 77-bet
2. Falsafa tarixi. Gunnar Skirbekk, Nils Gilye ; „Sharq" Nashriyot-matbaa Aksiyadorlik Kompaniyasi Bosh Tahririyati ; Toshkent - 2002; 220-221-betlar
3. Тошов, Х. И. (2020). ШАРҚ ВА ҒАРБ РЕНЕССАНСИНИНГ ВУЖУДГА КЕЛИШИДА ГЕРМЕТИЗМ ҒОЯЛАРИНИНГ АҲАМИЯТИ. *Исследование Ренессанса Центральной Азии, 1(2)*.
4. Худойкулов, Ж. (2020). “ТАНҚИДИЙ ТАҒАККУР” ТУШУНЧАСИ ВА УНИНГ ТАЪЛИМ ЖАРАЁНИДАГИ РОЛИ. *Academic research in educational sciences, (1)*.
5. Пардаев, Б., & Тошов, Х. И. (2020). Плотин дунёқарашида борлик масалаларининг муҳокамаси. *Academic research in educational sciences, (1)*.
6. Худойкулов, Ж. (2020). “ТАНҚИДИЙ ТАҒАККУР” ТУШУНЧАСИ ВА УНИНГ ТАЪЛИМ ЖАРАЁНИДАГИ РОЛИ. *Academic research in educational sciences, (1)*.